



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 1-son

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 5 HOSHIMXONOV AHROR MO’MINOVICH**
O‘zbekistonda boshqaruv tizimini takomillashtirish
istiqbollari
- 14 ERGASHEV IKROM ABDURASULOVICH**
Soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirish orqali soliq
intizomini ta’minlashning nazariy-huquqiy mexanizmlari
- 24 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**
Huquq va qonun ustuvorligi konstitutsiyaviy-huquqiy
prinsip sifatida
- 31 MAXMUDOV FIRUZ BAXTIYOR O’G’LI**
Davlat xaridlari tizimida manfaatlar to’qnashuvining
oldini olishning tashkiliy-huquqiy jihatlari
- 44 BOKIYEV JAHONGIR NURMATJON O’G’LI**
Sun’iy intellektni ta’lim olish jarayoniga tatbiq
etishning ayrim jihatlari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 53 XAZRATQULOV ODILBEK TURSUNOVICH**
Raqamli moliyaviy xizmatlar tushunchasi, tarixiy
rivojlanish va huquqiy asoslari
- 64 АЪЗАМХУЖАЕВ УМИДХОН ШАВКАТ УГЛИ**
Национальные правовые аспекты реализации
функций государства при создании и развитии
международных транспортных коридоров
- 73 NAEEM ALLAHRAKHA**
Practices of the advertisement legislation of the
Republic of Uzbekistan

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOIY TA’MINOT HUQUQI

- 91 JAVLIYEVA GULLOLA ABDURAHIM QIZI**
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat munosabatlari
transformatsiyasi va notipik mehnat munosabatlari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

101 MAXKAMOV DURBEK NEMATOVICH

Flora qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari va zamonaviy tendensiyalar

110 XAYITOV PANJI BUXAROVICH

“Yashil” energetikani rivojlantirishning huquqiy asoslari va istiqbollari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH.KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI.

117 KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish va majburan to'xtatish holatlari tahlili

127 MIRZARAIMOV SARDOR TAXIROVICH

Bezorilik: jinoiy-huquqiy kvalifikatsion muammolar

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

141 RASHIDOV BEXZOD NURBOEVICH

**ABDUVAHOBOV SHERZODBEK
ABDUVAHOBOVICH**

Jinoyat ishlarini tergov qilishda mutaxassisning protsessual maqomi

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

149 BEGATOV JASURBEK NUMONJANOVICH

Mehnat munosabatlarida kamsitishning oldini olish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi (AQSh va Yaponiya misolida)

**160 ZAHMATKASH, FIDOIY, SIVILIST OLIM VA
USTOZ RUZINAZAROV SHUXRAT
NURALIYEVICHNING YORQIN VA IBRATLI
HAYOT YO'LI**

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.4.1./XQUR4943>
UDC: 342.4(045)(575.1)

O'ZBEKISTONDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Hoshimxonov Ahror Mo'minovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti prorektori,
yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0003-4372-7173
e-mail: hoshimxonov@tsul.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda so'nggi yillarda davlat boshqaruvini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risida fikr yuritiladi. Bunda mustaqillikdan keyingi yillarda davlat boshqaruvi sohasida, jumladan, hukumat va uning tarkibiy tuzilmalari faoliyatida amalga oshirilishi kutilgan bir qator zaruriy ma'muriy islohotlarning ahamiyati bayon qilingan. Shuningdek, unda 2022-yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tashkiliy tuzilmasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar, shuningdek, davlat boshqaruvining markaziy organlari sirasiga kiruvchi vazirlik, davlat qo'mitasi, agentlik va inspeksiya kabi organlarning huquqiy tushunchasi va ta'rifi hamda ularning vakolatlari borasidagi huquqiy, ilmiy va amaliy fikrlar yuzasidan mulohazalar yuritiladi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, uni ixchamlashtirish, bir-birini takrorlovchi organlarni qisqartirish, ularning funksiyalarini birlashtirish, markaziy ijro etuvchi hokimiyat organlariga muayyan yo'nalishlarda tashkiliy mustaqillik berish kabi masalalar borasida ham nazariy fikr yuritiladi. Boshqaruv sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyati fuqarolarning huquq va erkinliklarini yanada kengroq ta'minlashi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: hukumat, boshqaruv, vazirlik, qo'mita, agentlik, inspeksiya, hokimiyat, ijro etuvchi organ, Vazirlar Mahkamasi, hokim, vakolat, Bosh vazir, vazir, funksiya, farmon.

ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Хошимхонов Ахрор Муминович,
доктор юридических наук,
проректор Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются реформы, которые были реализованы в нашей стране в последние годы для совершенствования государственного управления. Описана важность ряда необходимых административных реформ, которые предполагалось реализовать в сфере государственного управления в годы после обретения независимости, в том числе в деятельности правительства и его структур. Сюда относятся и комплексные реформы, реализуемые в организационной структуре Кабинета Министров Республики Узбекистан в соответствии с Указом Президента от 2022 года «О мерах по реализации административных реформ Нового Узбекистана», кроме того, обсуждены правовая концепция и определение таких органов, как министерства, государственные комитеты, агентства и инспекции, входящие в число центральных органов государственного управления, правовые, научные и практические аспекты их статуса и полномочий. Кроме того, дано теоретическое обоснование

по таким вопросам, как дальнейшее совершенствование организационной структуры Кабинета Министров Республики Узбекистан, её оптимизация, сокращение дублирующих органов, унификация их функций, а также предоставление организационной автономии центральным органам исполнительной власти по отдельным направлениям. Реформы государственного управления должны быть основаны на усилении защиты прав и свобод граждан.

Ключевые слова: правительство, управление, министерство, комитет, агентство, инспекция, хокимият, исполнительный орган, Кабинет Министров, хоким, полномочия, премьер-министр, министр, функция, указ.

PROSPECTS FOR IMPROVING THE MANAGEMENT SYSTEM IN UZBEKISTAN

Hoshimkhonov Akhror Muminovich,

Deputy Rector of Tashkent State University of Law,
Doctor of Sciences in Law

Abstract. This article examines the reforms that have been implemented in our country in recent years to improve public administration. The importance of a number of necessary administrative reforms that were expected to be implemented in the sphere of public administration in the years after independence, including in the activities of the government and its structures, was described. This also includes the comprehensive reforms implemented in the organizational structure of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan in accordance with the Presidential Decree of 2022 "On measures for the implementation of administrative reforms of New Uzbekistan," as well as discussing the legal concept and definition of such bodies as ministries, state committees, agencies, and inspections, which are among the central bodies of public administration, in terms of legal, scientific, and practical aspects of their status and powers. In addition, theoretical advice was given on such issues as further improvement of the organizational structure of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, its optimization, reduction of duplicate bodies, unification of their functions, as well as the granting of organizational autonomy to the central bodies of executive power in individual directions. Public administration reforms are based on greater protection of citizens' rights and freedoms.

Keywords: government, management, ministry, committee, agency, inspection, authority, executive body, the Cabinet of Ministers, governor, authority, Prime Minister, minister, function, decree.

Kirish

2022-yilning 20-dekabr sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnoma yo'llagan edi. Ushbu muhim murojaatda davlat rahbari 2023-yildagi ustuvor yo'nalishlarga to'xtalib o'tib, ulardan eng birinchi amalga oshirilishi zarur bo'lgan yo'nalish sifatida aynan "Ixcham va samarali davlat boshqaruv tizimi"ga o'tish yuzasidan fikr bildirdi. Shuningdek, yana bu borada xususiy tashabbuslarni yanada kengaytirish, ularga yangi istiqbollarni ochish maqsadida endi "qo'l boshqaruvi"dan – aniq natijaga ishlaydigan tizimli boshqaruvga o'tish vaqti kelganligini ta'kidlagan edi [1].

Bugun dunyoda rivojlangan demokratik mamlakatlarda davlat boshqaruvida ixcham hukumatning faoliyat yuritishi, hukumatning asosiy vazifalaridan biri sifatida jamiyatni ma'muriy yo'l bilan boshqarishdan aholiga maqsadli davlat xizmatini ko'rsatish yo'nalishiga o'tayotganligi, hukumat va uning tarkibiy tuzilmalari faoliyatida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan samarali foydalanish, "Elektron hukumat" tizimiga o'tish yo'li bilan inson omilini yanada kamaytirish orqali tezkor va sifatli davlat xizmatlarini joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bugungi ma'muriy-

huquqiy va konstitutsiyaviy islohotlar natijasida davlat boshqaruvi, jumladan, ijro etuvchi hokimiyat tizimidagi ijobiy jihatlarni yoritib berishga harakat qilindi. Shuningdek, "Raqamli hukumat" tizimini joriy qilish masalasi rivojlangan davlatlarning tajribasi qiyosiy tahlil qilindi.

Bundan tashqari, hukumat faoliyatidagi ixchamlashuv va mustaqillik yillarining dastlabki 30 yili davomida huquqiy jihatdan ta'rifi mavjud bo'lmagan davlat boshqaruvi tuzilmalarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga harakat qilindi.

Buning uchun ilmiy bilishning tahliliy, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy va formal yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

2022-yilning 23-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi.

Ushbu hujjatlar hukumatning davlat hokimiyati organlari tizimida tutgan mustaqil o'rni va rolini yanada oshirish, ushbu organ faoliyatining jamiyat va davlat hayotiga ta'sir etish usullari hamda vositalarining samarali mexanizmlarini joriy etish, hukumatning davlat xizmatini ko'rsatish borasidagi faoliyatida demokratik, subyektivlikdan xoli omma uchun maqbul bo'lgan shakl va uslublarini qo'llash, hukumatning parlament va prezident oldidagi mas'uliyati va hisobdorligini nazarda tutuvchi baholash mezonlarining huquqiy asoslarini takomillashtirishni nazarda tutdi.

Xususan, farmonga muvofiq, hukumat a'zosi bo'lgan ijro etuvchi hokimiyat organi rahbari tegishli sohada yagona davlat siyosatini olib borish va uni rivojlantirish bo'yicha belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga

erishish uchun mas'ul va javobgar hisoblanishi, tizimdagi kadrlar siyosatining Vazirlar Mahkamasi apparatidan mustaqil ravishda davlat xizmati to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq yuritilishini ta'minlashi, shuningdek, eng muhimi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va turli masalalar hukumatga bevosita vazirlar va boshqa mustaqil ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari tomonidan belgilangan tartibda kiritilishi, bunda davlat ishtirokidagi tashkilotlar va xo'jalik birlashmalari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va boshqa masalalar tegishli sohada davlat siyosatini amalga oshirayotgan vazir yoki boshqa mustaqil ijro etuvchi hokimiyat organi rahbari orqali kiritilishi belgilandi [2].

Bu ayni paytda har bir vazirning o'z sohasini mustaqil boshqarishini, kerakli mutaxassislarni tizimga jalb etishda erkinligini ta'minlashi, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi qarorlari loyihalari to'g'ridan to'g'ri sohaviy ijro etuvchi tarmoq rahbarining shaxsan o'zi tomonidan taqdim etilishi uning ushbu hujjat ijrosi bo'yicha mas'uliyatini oshirishi barobarida o'z soha yo'nalishining kelgusi faoliyati natijalari yuzasidan shaxsiy va jamoaviy javobgarligini nazarda tutishi bilan ham ahamiyatlidir. Darhaqiqat, bunday tizim dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlari da mavjud bo'lgan amaliyot bo'lib, unda sohaviy ijro etuvchi hokimiyat rahbari o'zining yo'nalishini, ta'bir joiz bo'lsa, barcha "uvol savobi"ni zimmasiga oladi va bunda qonunchilik unga zarur kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, sohaning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishdek o'ta mas'uliyatli vazifalarni mustaqil belgilash huquqini taqdim etdi.

Farmonda Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi tuzilmasida amalda bo'lgan Bosh vazirning bir nechta o'rinbosarlari va Bosh vazir maslahatchilari lavozimi o'rniga Bosh vazirning 4 nafargacha o'rinbosarlari lavozimi bo'lishi, shuningdek, hukumat rahbari faoliyatini huquqiy, tashkiliy-texnik, axborot-tahliliy va protokol jihatdan ta'minlaydigan

Bosh vazir kotibiyati tashkil qilinishi belgilandi hamda hukumat ijro etuvchi tuzilmasida iqtisodiyot va ijtimoiy sohalar bo'yicha kotibiyatlar, departamentlar va ular huzuridagi boshqa bir qator bo'limlar tugatilishi belgilangan edi [3]. Ushbu qoida jahondagi ixcham hukumat tashkil etish amaliyotining boshqaruv tizimimizga kirib kelishini ta'minlagan huquqiy asosdir. Mazkur tuzilmalarni maqbullashtirish munosabati bilan bo'shagan mablag'lar o'rnak ko'rsatgan boshqaruv xodimlarining natijadorlik asosidagi faoliyatini qo'shimcha rag'batlantirishga yo'naltirildi. Bunday tartib maqsadli va sifatli hamda samarali xizmat ko'rsatgan davlat xizmatchilarini qo'llab-quvvatlashning muhim ijobiy ko'rinishidir.

Farmonning eng muhim jihatlaridan yana biri shu paytgacha qonunchiligimizda ta'rif va tushunchasi, bir-biridan farqi, vazifa va funksiyalari tasnifi, o'ziga xos xususiyatlari bo'lmagan vazirlik, qo'mita, agentlik va inspeksiya kabi ijro etuvchi hokimiyatning markaziy tarmoq organlariga ishlab chiqilgan huquqiy ta'riflardir. Unga ko'ra, vazirlik – tegishli sohalarida yagona davlat siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi, muayyan yo'nalishda ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hamda tizimdagi rahbariy faoliyatni yakkaboshchilik asosida tashkil etadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organi ekanligi belgilandi [4].

Tadqiqot natijalari tahlili

O'zbek olimlarining asarlarida ham ijro etuvchi hokimiyatning ushbu sohaviy organiga ta'riflari mavjud edi. Jumladan, E. Xojiyev va F. Samig'jonovlar "Vazirlik ijro hokimiyatining asosiy tizimlaridan biri hisoblanadi, vazirliklar belgilangan sohada davlat siyosati va boshqaruvni amalga oshirish, shuningdek, mazkur sohadagi ijro etuvchi organlarning faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etiladi", [5] – deb ta'rif bergan bo'lsa, rossiyalik mutaxassislar "Vazirlik – davlat boshqaruvining muayyan sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi va

tarmoq ijro hokimiyati organlari faoliyatini tartibga soluvchi ijro hokimiyatining markaziy organidir", – [6] deydi. Yana bir mutaxassis D. Ovsyanko "TDYU Vazirlik – belgilangan faoliyat sohasida davlat siyosatini olib boruvchi va boshqaruvni amalga oshiruvchi hamda qonunlar va Prezident farmonlari, hukumat qarorlari asosida shu soha doirasida ijro hokimiyatining boshqa organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi ijro hokimiyatining markaziy organidir", [7] deya baholagan. Professor A. Azizxo'jayev "tarmoq va qisman funksional davlat organlari (vazirliklar, davlat qo'mitalari) uchun ko'proq ma'lum bir funksiyani amalga oshirishga qaratilgan maxsus faoliyat xosdir", [8] – deb fikr bildirgan. Biroq ushbu ta'riflar nazariy ahamiyatga ega bo'lib, qonunchilik hujjatlarida o'zi aksini topmagan edi.

MDH mamlakatlari huquqiy amaliyotiga nazar tashlasak, Qozog'iston Respublikasining "Hukumat to'g'risida"gi Qonuni 22-moddasida [9] yoki Qirg'iziston Respublikasining 2021-yil 6-oktabrda qabul qilingan Qirg'iziston Respublikasi "Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonuni 22-moddasida [10] "vazir" tushunchasiga ta'rif berilgan. Rossiya Federatsiyasida ijro etuvchi hokimiyat markaziy organi sifatida vazirlikka ta'rif konstitutsiya va maxsus "Hukumat to'g'risida"gi Qonunda bevosita belgilanmagan bo'lsa-da, Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2004-yil 9-martdagi "Federal ijro hokimiyati organlari tizimi va tuzilishi to'g'risida"gi Farmonida huquqiy ta'rif berilgan [11]. Turkmaniston Respublikasining konstitutsiyasi [12] va Turkmaniston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi qonunida [13] vazir tushunchasiga ta'rif berilmagan.

Rossiyalik huquqshunos D. Vigolovskiy ijro hokimiyati federal organlarining funksiyalaridan kelib chiqqan holda ularni uch guruhga: 1) muayyan boshqaruv sohasi doirasida normativ-huquqiy tartibga solishni va davlat siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi federal vazirliklar; 2) kontrol va

nazoratni amalga oshiruvchi federal xizmatlar; 3) davlat xizmatlarini ko'rsatish yuklatilgan va davlat mulklarini boshqaruvchi hamda huquqni qo'llash funksiyasi yuklangan federal agentliklarga bo'ladi.

Shuningdek, farmonda yana bir ijro hokimiyati tashkiliy tuzilmasi bo'lgan qo'mitaga huquqiy jihatdan ta'rif berildi. Unga ko'ra, qo'mita tegishli soha ichidagi tarmoq faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va tartibga soluvchi hamda tizimdagi rahbariy faoliyatni kollegial asosda tashkil etadigan, shuningdek, vazirlikning tashkiliy bo'ysunuvida faoliyat yuritadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanishi mustahkamlandi.

Avvalgi holat bo'yicha amaliyotda davlat qo'mitasi xuddi vazirlik singari muayyan bir sohaning markaziy boshqaruv organi hisoblanar edi va tashkiliy jihatdan uni qo'mita raisi boshqarsa-da, qarorlar kollegial organ tomonidan qabul qilinar edi. Shu sababli ham, nazariy jihatdan olimlar tomonidan davlat qo'mitasi ijro hokimiyatining markaziy organlaridan biri bo'lib, kollegiallik asosida tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshiradi, shuningdek, faoliyatning ma'lum bir sohasida tartibga solish vazifasini bajarishi [14] ta'kidlangan.

Farmonga ko'ra, endilikda davlat qo'mitasi mavjud bo'lmay, balki qo'mita faoliyat yuritadi va u ham biror bir vazirlik tizimiga kirib ijtimoiy hayotning muayyan sohasini boshqarib boradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi Bojxona qo'mitasi sifatida qayta tashkil etilib, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tarkibiga yoki O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi esa Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi sifatida qayta tashkil etilib, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuriga o'tkazildi. Shunga ko'ra, ayni bir paytda bir vazirlik tarkibida bir nechta qo'mitalar ham bo'lishi mumkinligi amaliyoti joriy etildi. Biror-bir davlatning konstitutsiyasida

hukumat tarkibida qancha tarkibda vazirlar faoliyat olib borishi belgilanmaydi. Biroq Armaniston konstitutsiyasining 147-moddasida hukumat tarkibida 18 tadan oshmagan tarkibdagi vazirlar faoliyat yuritishi mustahkamlangan.

Farmonda yana agentlik va inspeksiya-ga ham yuridik jihatdan ta'rif berildi va unga ko'ra, agentlik asosiy vazifasi sifatida tegishli sohada davlat xizmatlarini ko'rsatish va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqni qo'llash funksiyalarini amalga oshiruvchi, shuningdek, vazirlik tashkiliy bo'ysunuvida faoliyat yuritadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanishi, inspeksiya asosiy vazifasi sifatida tegishli soha va tarmoqlarda davlat nazorati va tekshiruvni amalga oshiruvchi, shuningdek, vazirlik tashkiliy bo'ysunuvida faoliyat yuritadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanishi belgilandi.

Ushbu ta'riflar Vazirlar Mahkamasi tarkibidagi ijro etuvchi hokimiyat organlarining vakolatlari, ular iyerarxiyasini ham tizimli tarzda tartibga solganligi bilan ahamiyatlidir. Bunda jamiyat hayotining u yoki bu sohasini boshqarishda aynan vazirlikning o'rne va maqomi ortganligi, shuningdek, qo'mita, agentlik va inspeksiyalar esa uning tarkibida faoliyat olib borishi, ularning ishini muvofiqlashtirish va boshqarish esa yakka-boshchilik asosida tegishli vazir tomonidan amalga oshirilishini mustahkamladi. Demak, endi xuddi rivojlangan demokratik davlatlar singari Vazirlar Mahkamasi tarkibida faqat vazirlar qoldi. Avvalgi hukumat tarkibida bo'lgan davlat qo'mitalari esa qo'mita sifatida qayta nomlanib, tegishli vazirlikka bo'ysunuvchi tuzilma sifatida qoldi.

Hujjatda, shuningdek, O'zbekiston ma'muriy islohotlarining birinchi bosqichi doirasida mustaqil faoliyat yurituvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining soni 61 tadan 28 tagacha, shu jumladan, vazirliklar sonini 25 tadan 21 tagacha qisqarishi ko'rsatilgan edi.

Bu, o'z navbatida, ko'plab bir-birini takrorlovchi vazifa va funksiyalarni amalga oshiruvchi markaziy idoralar birlashtirilishini nazarda tutdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga aylantirilishi o'sib kelayotgan yosh avlodning bog'cha yoshidan boshlab to o'spirin yoshgacha ulg'ayishiga doir barcha bosqich va jarayonlarni to'liq qamrab olgan holda yagona davlat siyosatini yuritishga imkon beradi. Bu esa avvalgi ikkita boshqaruvdagi turli qarash va masalaga turlicha yondashuvni bartaraf etib, yosh avlod uchun yagona, uzoq muddat uchun mo'ljallangan tizimli ta'lim va tarbiyani kafolatlaydi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda boshqa ushbu yo'nalishdagi ko'plab boshqaruv organlari negizida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tashkil etilishi aholining aksariyat qismi yoshlar bo'lgan mamlakatimizda oliy ta'lim, ilmiy ijodiyot va kashfiyot, fan yo'nalishlarini bir tizimga solish va bu orqali davlat va jamiyat uchun yetuk kadrlar tayyorlashdek o'ta mas'uliyatli vazifalarni yaxlit, puxta o'ylangan yagona yondashuv vujudga kelishini kafolatlaydi.

Shuningdek, farmonda 2023-yil 1-yanvardan boshlab respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining samarali ish faoliyatini yo'lga qo'yish uchun mas'uliyatini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan har bir respublika ijro etuvchi hokimiyat organining yil davomida erishishi zarur bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) belgilanishi, respublika ijro etuvchi hokimiyat organi rahbari yil boshida o'zining o'rinbosarlari kesimida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga (indikatorlarga) erishish bo'yicha harakatlarni dasturini ishlab chiqib, jamoatchilikka taqdim qilishi, harakatlarni dasturiga asosan respublika ijro etuvchi hokimiyat organining

hududiy bo'linmalari rahbarlari maqsadli ko'rsatkichlarga (indikatorlarga) erishish bo'yicha hududiy rivojlanish dasturini ishlab chiqib, jamoatchilikka taqdim qilishi, respublika ijro etuvchi hokimiyat organi va uning hududiy bo'linmalari rahbarlari yil yakuniga qadar harakatlarni va hududiy rivojlanish dasturlari amalga oshirilishi va maqsadli ko'rsatkichlarga (indikatorlarga) erishish holati yuzasidan hisobot berishi va uni ochiq e'lon qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Demak, jamoatchilikda endi vazirlar faoliyatini har yili baholab borish imkoniyati vujudga keldi. Ushbu holat ayni paytda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi oltinchi muhim yo'nalishda belgilangan “davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish ishlarini jadallashtirish hamda davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash” maqsadlariga ham to'la mos keladi.

Bu holat, prezidentimiz ta'kidlaganidek, har bir vazirning siyosiy maqomi, prezident, parlament va jamoatchilik oldidagi mas'uliyati oshirilishiga, bunga mos ravishda javobgarligi ham kuchaytirilishiga olib keladi. Zero, xalq uchun xizmat qilishi zarur bo'lgan davlat xizmatchisining faoliyatini aholining o'zi baholab borishi va unga nisbatan erkin fuqarolik munosabatini bildira olishi ham demokratiyaning muhim ko'rinishidir.

Endi yangi tartibga ko'ra, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining institutsional mustaqilligini oshirish maqsadida markaziy apparat va hududiy bo'linmalar tuzilmalarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlash amaliyoti bekor qilindi; respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlariga ajratilgan mablag'lar doirasida hamda belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda markaziy apparat va hududiy bo'linmalarining tuzilmasi va shtat birliklarini tasdiqlash huquqi taqdim etildi; respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlariga hududdagi ehtiyoj va sharoitlardan kelib chiqib, muayyan viloyat

yoki tuman (shahar) bo'linmalarini tashkil etish yoki ularni tumanlararo (viloyatlararo) shaklda tuzish vakolati berildi.


Bu holat endi ijro etuvchi hokimiyat faoliyatida faqatgina markazdan belgilangan tartib va shtat birligida ishlash tartibini emas, balki har bir holatda mazkur organning o'z xususiyatidan kelib chiqib, kadrlar siyosatini mustaqil yurita olish huquqini ta'minlaydi va bu o'z navbatida, jadal sur'atlarda kechayotgan islohotlarga munosib va maqbul yo'lni tashlashdek mas'uliyatni har bir rahbarga yuklaydi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan 2023-yil 1-yanvardan boshlab respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari bir vaqtning o'zida xo'jalik boshqaruvi organlarining rahbari vazifasini bajarishi taqiqlandi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasi "Raqamli hukumat" mexanizmi fonida barqaror rivojlanish sohasidagi innovatsiyalar muammosini bartaraf etish maqsadida qarorlar qabul qiladi. Bu qarorlar raqamli iqtisodiyot sohasidagi investitsiyalarni rag'batlantirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash, raqamli infrastrukturani rivojlantirish, xalqaro IT tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish va boshqalar kabi masalalarni qamrab olmoqda.

Xususan, BMTning elektron hukumatni rivojlantirish indeksi (E-Government Development Index)da mamlakatlarning mavqeyi ularning umumiy indeksi asosida belgilanadi (rasmda).

O'zbekiston BMTning E-Government Development Indexida 2020-yilgi reytingida 87-pog'onani egallagan bo'lsa, 2022-yil holatida Davlat onlayn xizmatlari va inson kapitali yo'nalishlari mamlakatimizga yaxshi reyting ballarini keltirishi natijasida 69-o'rinni egallagan [15].



Rasm. E-hukumatni rivojlantirish indeksi

Xulosalar

Bunday boshqaruv sohasidagi islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad har bir rahbar

asosan bir sohaga sifatli va professional rahbarlikni amalga oshirishi hamda sohani barcha jihatlarini to'liq idrok etib samarali va o'z

navbatida, natijador ish ko'rsatishini nazarda tutadi.

Bundan tashqari, barcha respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining qariyb 5 ming funksiyalari xatlovdan o'tkazilib, 500 ga yaqin takrorlanadigan, o'z ahamiyatini yo'qotgan hamda amalga oshirish mexanizmlari bilan ta'minlanmagan funksiyalar aniqlanganligi inobatga olinib respublika va hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlari funksiyalarining ochiq reyestrini (Funksiyalar yagona reyestri) shakllantirish va uni doimiy yuritish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Bundan ko'zlangan maqsad, funksiyalar yagona reyestriga kiritilgan har bir funksiya bo'yicha ularni respublika, viloyat va tuman (shahar) kesimida amalga oshirish uchun tashkiliy-huquqiy mexanizmlar, moliyaviy-iqtisodiy va kadrlar resurslari bilan ta'minlanganlik holati aks ettiriladi, shuningdek, amalga oshirish mexanizmi bo'lmagan funksiyalarni zarur tashkiliy-huquqiy mexanizmlar, moliyaviy-iqtisodiy va kadrlar resurslari bilan ta'minlash, o'z ahamiyatini yo'qotgan funksiyalarni esa bekor qilish bo'yicha hamda funksiyalarni raqamlashtirish va inson omilini qisqartirgan holda

avtomatlashtirish yuzasidan takliflar kiritib boriladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, davlat boshqaruvi apparatini saqlash bilan bog'liq xarajatlarni maqbullashtirish, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish hamda budjet mablag'larining sarflanishi ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish maqsadida hududlarga xizmat safarlarini qisqartirgan holda joylardagi muammolarni aniqlash uchun "onlayn qabul", "virtual tashrif" kabi hududlar bilan ishlashning zamonaviy texnologiyalarga asoslangan masofaviy usullarini qo'llash tizimi joriy etildi. Bunda hududlarga borish bilan bog'liq safar xarajatlari, yashash va turar joy bilan bog'liq xarajatlar tejalib, ushbu mablag'lar aholining muammolarini yechish uchun maqsadli sarflanishi ta'minlanadi.

Ushbu islohotlar natijasida zamonaviy talablarga javob beradigan, ixcham davlat boshqaruvi tizimi shakllantirildi. Bunda qarorlar qabul qilish va turli ijtimoiy masalalarni ko'rib chiqish jarayonlari soddalashtirilib davlat organlari rahbarlarining mas'uliyati oshirildi hamda ular faoliyati natijadorlikka yo'naltirildi.

REFERENCES

1. President Shavkat Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
2. Hojiyev E.T., Samig'jonov F.R. Ma'muriy qonunchilik tizimi [Administrative legal system]. Tashkent, TSUL Publ., 2005, p. 44.
3. Tikhomirov Yu.A., Petukhov V.N., Ignatyuk N.A. Zakonoproektnaya deyatel'nost' federal'nykh organov ispolnitel'noy vlasti [Legislative activities of federal executive authorities]. *Journal of Russian Law*, Moscow, 1997, no. 5, pp. 9–17.
4. Ovsyanko D.M. Administrativnoye pravo [Administrative law]. Moscow, Yurist Publ., 2000, p. 68.
5. Azizxodjayev A.A. Davlat hokimiyati organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyatining nazariy muammolari [Theoretical problems of law enforcement activities of state authorities]. PhD thesis. Tashkent, 1992, p. 54.
6. Constitutional Law of the Republic of Kazakhstan dated December 18, 1995. Available at: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=1003973&pos=244;-32#pos=244;-32
7. Constitutional Law of the Kyrgyz Republic of October 11, 2021. Available at: <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/112301?cl=ru-ru>

8. Decree of the President of the Russian Federation dated 03/09/2004 N 314 (as amended on 03/27/2023) "On the system and structure of federal executive authorities". Available at: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_46892/942772dce30cfa36b671bcf19ca928e4d698a928/

9. Constitution of Turkmenistan (new edition). Available at: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31337929&pos=4;-58#pos=4;-58/

10. The Mejlis (Parliament) of Turkmenistan is a representative body that exercises legislative power. Available at: <https://mejlis.gov.tm/single-law/318?lang=ru/>

11. Vygodovskiy D. Konstitutsionno-pravovoye regulirovaniye federal'noy ispolnitel'noy vlasti Rossii [Constitutional and legal regulation of the federal executive power of Russia]. PhD thesis. Stavropol, 2004, pp. 19–20.

12. Bakhrakh D.N., Rossinskiy B.V., Starilov Yu.N. Administrativnoye pravo [Administrative law]. Moscow, Norma Publ., 2004, pp. 179–181.

13. Constitution of the Republic of Armenia. Available at: <https://www.president.am/ru/constitution-2015/>

14. Hoshimkhonov A.M. Mechanisms for ensuring the powers of the Cabinet of Ministers. *Journal of Law Research*, 2022, vol. 7, iss. 4, pp. 5–11. DOI: 10.5281/zenodo.6545054/. Available at: <https://www.tadqiqot.uz/index.php/law/article/download/4572/4331/>

15. Department of Economic and Social Affairs Public Institutions. Available at: <https://publicadministration.un.org/>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 1-SON

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

J. Allayorov

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 26.03.2024-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 19,3.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 37.

TDYU tipografiyasida chop etildi.